



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2023 - yil 15 - sentabr

89-14-220-F/23

Yangihayot tuman hokimligi

**“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish
bo‘yicha Respublika shtabining 2023-yil 7-sentabrdagi 2-sonli yig‘ilish bayoni
ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisining 2023-yil 7-sentabrdagi 03-RA 1-1-1329-sonli ko‘rsatma xatida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini hamda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha Respublika shtabining 2023-yil 7-sentabrdagi 2-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida,

1. “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha Respublika shtabining 2023-yil 7-sentabrdagi 2-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yilning IV-choragida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish rejalashtirilgan mahallalar ro‘yhatiga tumandagi “Xushnud” MFY kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokiminining o‘rinbosarlari (X.Tashpulatov, Sh.Qodirov, O.Fozilov, I.Xushvaqtov, M.Kamilov, I.Abdullaeva), sektor rahbarlari, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

joriy yil 20-sentabrga qadar “Xushnud” mahallasidagi ko‘chalar va xonadonlarda o‘tkaziladigan xatlov natijalaridan hamda Respublika shtabining 2023-yil 7-sentabrdagi 2-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan namunaviy “Yo‘l xaritasi”dan kelib chiqib, “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mazonlarini joriy etish bo‘yicha tuman “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Toshkent shahar hokimligiga taqdim qilinsin.

mahalladagi mavjud ko‘chalarga tuman tashkilotlarini biriktirilishi ta’minlansin.

tumanda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla”

mezonlari asosida ishlab chiqilgan tuman “Yo‘l xaritasi”da belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini amalga oshirish bo‘yicha mutasaddi idora tashkilotlarning faol ishtirokini ta’minlash choralarini ko‘rilsin.

4. “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish doirasida pudratchi va loyiha tashkilotini, tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar bilan tuzilayotgan shartnomalarda tovar (ish, xizmatlar) hajmi va narxini aniqlash bo‘yicha tuman Ishchi komissiyasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda “Yo‘l xarita”ga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun tovar (ish va xizmatlar)ni xarid qilish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar mahalla fuqaro yig‘ini tomonidan Ishchi komissiyasi xulosasi asosida tuziladi.

5. “Xushnud” mahallasida “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mazonlarini joriy etish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar yuzasidan hisobotlar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan yuritib borilishi ta’mnlansin.

6. Mahalla fuqarolar yig‘ini amalga oshirilgan xarajatlar bo‘yicha barcha birlamchi moliyaviy hujjatlarni (Ishchi komissiya bayonlari, shartnomalar, chek va kvitansiylar, hisobvaraq-fakturalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqalar) tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga topshirsin.

7. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Hakimova):

“Xushnud” mahallasida “Obod xonodon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni hokimlikning rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ta’mnlansin.

8. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov

Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 15-sentabrdagi
89-14-220-F/23-son
farmoyishiga
1-ilova

**“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mazonlarini joriy etish
doirasida pudratchi va loyiha tashkilotini, tovar va xizmatlarni yetkazib
beruvchilar bilan tuzilayotgan shartnomalarda tovar (ish, xizmatlar) hajmi va
narxini aniqlash bo‘yicha tuman Ishchi komissiyasi**

TARKIBI

T/R	F.I.Sh	Egallab turgan lavozimi
1.	Sh.Qodirov	tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi
2.	A.Eshbekov	Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tuman bo‘limi boshlig‘i
3.	A.Niyozov	tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari
4.	M.Abazov	tuman hokimligi Qurilish bo‘limi boshlig‘i
5.	O.Aliqulov	“Xushnud” MFY raisi
6.	Q.Qodirov	“Xushnud” MFY Kengashi a’zosi
7.	M.Xujaniyozov	“Xushnud” MFY Kengashi a’zosi